

**DETEKTIV JANRIDA DIALOG VA YASHIRIN MA'NOLAR  
PRESUPPOZITSIYA MANBAI SIFATIDA (AGATA KRISTI ASARLARI  
MISOLIDA)**

**Aliyorov Firdavs Chori o'g'li**

*Bachelor student of Samarkand State*

*Institute of Foreign Languages*

**Bastamova Naima**

*4th year student of Samarkand State Institute of Foreign Languages*

*Supervisor: Yusupova Shaxzoda Sharafiddinova*

*Teacher at Sam.SIFL*

*+998902801696*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 17.04.2026*

*Revised: 18.04.2026*

*Accepted: 19.04.2026*

**KALIT SO'ZLAR:**

*Agata Kristi,  
presuppozitsiya, dialog,  
yashirin intriga,  
pragmatika,  
konversatsion tahlil*

*Ushbu maqolada Agata Kristi detektiv romanlarida dialog va yashirin ma'nolarning presuppozitsiya shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif oddiy suhbatlarni o'quvchi ongida yashirin taxminlar tug'diradigan murakkab mexanizmga aylantiradi. Tahlil jarayonida Kristi qo'llagan lisoniy vositalar (modal birliklar, murakkab gaplar, sukut) va konversatsion strategiyalar (mazmunni o'zgartirish, ikki ma'noli javoblar) presuppozitsiya hosil qilishda muhim rol o'ynashi ko'rsatib beriladi. "The Murder of Roger Ackroyd" va boshqa romanlardan olingan misollar orqali bu jihatlar yoritiladi. Xulosa sifatida, Kristi dialoglari syujetni rivojlantirishdan tashqari, o'quvchini detektiv o'yinga jalb etuvchi va uni noto'g'ri xulosalarga olib boruvchi murakkab pragmatik mexanizm ekanligi ta'kidlanadi.*

## Kirish

Agata Kristi, “detektiv janrining qirolichasi”, o‘z asarlarida murakkab syujet bilan birga tilning o‘quvchini chalg‘itishdagi kuchidan ustalik bilan foydalanadi. Dialoglar oddiy muloqot emas, balki o‘quvchini noto‘g‘ri yo‘nalishga boshlovchi intellektual o‘yin maydonidir. Presuppozitsiya tushunchasi bu jarayonda markaziy ahamiyat kasb etadi. Har bir jumla o‘quvchi ongida oldindan qabul qilinadigan taxminlarni shakllantiradi. Ushbu maqola Kristi dialoglarida yashirin intriga qanday yaratilishini va presuppozitsiya manbai sifatida qanday ishlashini ko‘rsatishga qaratilgan.

### 1. Pragmatik yondashuv va konversatsion maksimalar

Pol Graysning “Hamkorlik prinsipi” va uning maksimalari detektiv janrida ko‘pincha buziladi. Kristi qahramonlari ataylab noto‘liq ma‘lumot beradi, mavzuni o‘zgartiradi yoki ikki ma‘noli gapiradi. Bu buzilishlar o‘quvchini noto‘g‘ri presuppozitsiyalarga olib keladi.

### 2. Hikoyachi va subyektiv nuqtai nazar

Kristi ko‘pincha birinchi shaxs hikoyasidan foydalanadi. Bu o‘quvchini hikoyaga jalb qiladi va hikoyachining nuqtai nazarini presuppozitsiya sifatida qabul qilishga majbur etadi. Modal so‘zlar va baholovchi leksika o‘quvchida ishonch uyg‘otadi, biroq bu ishonch ko‘pincha noto‘g‘ri yo‘nalishga olib boradi.

### 3. Ijtimoiy niqoblar va teatr elementlari

Qahramonlar ko‘pincha ijtimoiy rollar ortiga yashirinadi. “Murder on the Orient Express” romanida jinoyatchilar teatr sahnasidagi aktyorlar kabi tutadilar. Har bir dialog oldindan tayyorlangan bo‘lib, o‘quvchini chalg‘itishga xizmat qiladi.

### 4. Yashirin ma‘lumot va noaniqlik

Kristi ko‘pincha ataylab to‘liq ma‘lumot bermaydi. “Problem at Sea”da ovoz orqali o‘quvchi noto‘g‘ri xulosaga keladi. “The Moving Finger”da hikoyachining subyektiv kechinmalari haqiqat sifatida qabul qilinadi.

### 5. O‘quvchi ishtiroki va janr stereotiplari

Kristi o‘quvchini passiv kuzatuvchidan faol tahlilchiga aylantiradi. Ba‘zan u detektiv janr stereotiplarini parodiya qiladi. Masalan, The Mirror Crack’d romanida inspektor hazil tariqasida eng past gumon qilinuvchini jinoyatchi deb ataydi, ammo Miss Marpl bu stereotipni rad etadi.

## Adabiyotlar tahlili

Agata Kristi haqida juda ko‘p maqolalar va kitoblar yozilgan. Ularning ko‘pchiligi uning syujet qurish mahorati, qahramonlarning psixologiyasi va detektiv janrdagi o‘rni haqida. Masalan, Flood 2018-yilda yozgan maqolasida Kristining eng murakkab sirlarni qanday qilib

=====  
oddiy dialoglar ichida yashirishini aytib o'tgan. U buni "ko'z oldida yashirish" deb atagan. Douthwaite esa 2022-yilda Kristi asarlarining ijtimoiy ahamiyatini o'rgangan. Uning fikricha, Kristi dialoglari faqat syujetni olg'a surish uchun emas, balki o'quvchi bilan o'yin qilish uchun ham xizmat qiladi. Al-Sa'adoon va Al-Zubaidy 2024-yilda "The Murder of Roger Ackroyd" romanidagi dialoglarni konversatsion tahlil qilgan. Ular shuni ko'rsatganki, romandagi ko'plab suhbatlar ataylab noaniq qilib yozilgan. Bu esa 2019-yilda xuddi shu roman haqida yozgan. Uning asosiy e'tibori birinchi shaxs hikoyasining o'quvchiga ta'siriga qaratilgan. Lekin shuni aytish kerakki, bu ishlarning deyarli hech birida presuppozitsiya tushunchasi asosiy o'ringa qo'yilmagan. Ko'pchilik tadqiqotchilar Kristining til o'yinlariga e'tibor bergan, ammo ularni pragmatika nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilmagan. Shu sababli, men ushbu maqolada aynan presuppozitsiyaga asosiy e'tiborni qaratdim. Bu borada hali yetarlicha ish qilinmagan deb o'ylayman.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda men sifatli tahlil usulidan foydalandim. Bu degani, men raqamlar yoki statistikaga emas, balki matnni chuqur o'qib, tahlil qilishga harakat qildim. Asosiy nazariy asos qilib Pol Graysning "Hamkorlik prinsipi"ni oldim. Graysning aytishicha, har qanday muloqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida birgalikda ishlash tamoyili bor. Bu tamoyil to'rtta maksimumdan iborat. Birinchisi - miqdor maksimumi, ya'ni yetarlicha ma'lumot berish kerak. Ikkinchisi - sifat maksimumi, ya'ni rost gapirish kerak. Uchinchisi - munosabat maksimumi, ya'ni mavzuga mos gapirish kerak. To'rtinchisi - usul maksimumi, ya'ni aniq va tushunarli gapirish kerak. Detektiv janrida esa bu maksimumlar ko'pincha buziladi. Men aynan shu buzilishlar qanday qilib presuppozitsiyalarni keltirib chiqarishini o'rgandim. Tahlil uchun Kristining bir nechta romanlaridan misollar oldim. Bular: "The Murder of Roger Ackroyd", "Murder on the Orient Express", "Problem at Sea", "The Moving Finger" va "The Mirror Crack'd". Har bir dialogda quyidagi narsalarga e'tibor qaratdim. Birinchidan, modal so'zlar, masalan "ehtimol", "albatta", "shekilli", "menimcha" kabi so'zlar. Ikkinchidan, murakkab gaplar. Uchinchidan, sukut va mavzu o'zgarishi. To'rtinchidan, ikki ma'noli javoblar. Shuningdek, birinchi shaxs hikoyasining o'quvchi presuppozitsiyasiga qanday ta'sir qilishini ham tahlil qildim. Maqsadim - Kristi dialoglaridagi yashirin ma'nolar qanday mexanizmlar orqali o'quvchi ongida "shubhasiz" taxminlarga aylanishini ochib berish edi.

### **Natijalar va muhokama**

Tahlillar natijasida men bir nechta muhim jihatlarni aniqladim. Ularni birma-bir aytib o'taman.

**Birinchi jihat** - Grays maksimalarining buzilishi. Kristi qahramonlari ko'pincha yetarlicha ma'lumot bermaydi. Bu miqdor maksimasining buzilishi hisoblanadi. Masalan, "The Murder of Roger Ackroyd"da hikoyachi ba'zi voqealarni aytib beradi, lekin eng muhim tafsilotlarni tashlab ketadi. O'quvchi esa bu bo'shliqni o'zi to'ldiradi, ya'ni presuppozitsiya qiladi. Keyinchalik esa bu taxmin noto'g'ri bo'lib chiqadi. Ba'zi hollarda qahramonlar ataylab yolg'on yoki chalg'ituvchi ma'lumot beradi. Bu sifat maksimasining buzilishi. Yoki suhbat davomida mavzuni birdan o'zgartirib yuboradi. Bu munosabat maksimasining buzilishi. Ba'zan esa juda noaniq va chalkash gapirishadi. Bu usul maksimasining buzilishi. Bu buzilishlarning barchasi o'quvchini noto'g'ri yo'nalishga olib boradi. O'quvchi esa buni sezmaydi ham.

**Ikkinchi jihat** - birinchi shaxs hikoyasining ta'siri. Kristi "The Murder of Roger Ackroyd"da birinchi shaxs hikoyasidan foydalanadi. Bu juda ayyorona usul. Chunki o'quvchi hikoyachining ko'zi bilan voqealarni ko'radi, uning fikrlarini o'zi bilan birga qabul qiladi. Hikoyachi "menimcha", "ehtimol", "shekilli", "ko'rinadiki" kabi modal so'zlarni ishlatadi. O'quvchi bu baholarni asta-sekin haqiqat deb qabul qila boshlaydi. Hech kim "bu hikoyachining o'zi yolg'on gapirayotgan bo'lishi mumkin" deb o'ylamaydi. Natijada esa roman oxirida katta syurpriz yuz beradi - hikoyachining o'zi jinoyatchi bo'lib chiqadi. Bu o'quvchini butunlay hayratda qoldiradi. Chunki o'quvchi avval qabul qilgan deyarli barcha presuppozitsiyalar noto'g'ri bo'lib chiqadi. Menimcha, bu Kristining eng kuchli usullaridan biri.

**Uchinchi jihat** - ijtimoiy niqoblar va teatr elementlari. "Murder on the Orient Express"da jinoyatchilar guruhi birgalikda harakat qiladi. Ularning dialoglari oldindan tayyorlangan, teatr sahnasiga o'xshaydi. Har bir qahramon o'z ijtimoiy rolini o'ynaydi. Ba'zisi asabiy, ba'zisi xotirjam, ba'zisi befarq, ba'zisi esa haddan tashqari mehribon. O'quvchi esa bu rollarga asoslanib, kim jinoyatchi bo'lishi mumkinligi haqida taxminlar qiladi. Ammo bu taxminlarning hammasi noto'g'ri bo'lib chiqadi. Chunki jinoyatchilar bir emas, hammasi. Bu yerda Kristi o'quvchining ijtimoiy presuppozitsiyalaridan foydalanadi. O'quvchi "bu odam mehribon, demak u jinoyatchi bo'la olmaydi" deb o'ylaydi. Lekin aslida aynan o'sha mehribon odam ham jinoyatda ishtirok etgan.

**To'rtinchi jihat** - yashirin ma'lumot va noaniqlik. Kristi ko'pincha ataylab to'liq ma'lumot bermaydi. U o'quvchini o'zi topishga majbur qiladi. "Problem at Sea"da qotillik sodir bo'lgan paytda bir ovoz eshitiladi. O'quvchi shu ovozga asoslanib, bir qator taxminlar qiladi. "Bu ovoz kimga tegishli?", "Nima uchun u baqirdi?", "U nimani ko'rdi?" degan savollar tug'iladi. Keyinchalik esa ma'lum bo'ladiki, ovoz boshqa manbadan kelgan va uning hech qanday aloqasi yo'q. "The Moving Finger"da esa hikoyachining subyektiv kechinmalari shunchalik

kuchli ifodalanganki, o'quvchi ularni haqiqat deb qabul qiladi. Lekin keyin ma'lum bo'ladiki, hikoyachining his-tuyg'ulari uni noto'g'ri xulosalarga olib borgan. Bu yerda Kristi yana bir bor o'quvchining presuppozitsiyalaridan foydalanadi. O'quvchi "agar hikoyachi buni his qilyapti demak, bu haqiqat" deb o'ylaydi. Lekin bu noto'g'ri.

**Beshinchi jihat** - janr stereotiplari bilan o'yin. Kristi ba'zan detektiv janrning odatiy qoidalarini parodiya qiladi. Ya'ni, u o'quvchining "detektiv roman qanday bo'lishi kerak" haqidagi taxminlaridan foydalanadi. "The Mirror Crack'd"da inspektor hazil tariqasida "eng kam gumon qilinuvchi jinoyatchidir" degan gapni aytadi. O'quvchi bu gapni hazil deb qabul qiladi, chunki detektiv janrida odatda eng kam gumon qilinuvchi aslida jinoyatchi bo'ladi. Bu deyarli qonuniyatga aylangan. Ammo Miss Marpl bu stereotipni rad etadi va haqiqiy jinoyatchini topadi. Bu orqali Kristi o'quvchining janr haqidagi presuppozitsiyalariga zarba beradi. O'quvchi "bu safar ham xuddi shunday bo'ladi" deb o'ylagan edi, lekin xato qilganini tushunadi.

Endi muhokama qiladigan bo'lsak, shuni aytish kerakki, Kristi dialoglari hech qachon tasodifiy emas. Men bir necha marta uning romanlarini qayta o'qiganman va har safar yangi narsalarni kashf qilaman. Har bir pauza, har bir mavzu o'zgarishi, har bir noaniq javob o'ylangan va hisoblangan. O'quvchi esa bu dialoglarni o'qirgan, o'zi bilmagan holda muallif tomonidan oldindan belgilangan taxminlarni qabul qilib boradi. Bu juda murakkab va ayni paytda juda oddiy mexanizm. Aynan shu jihat Kristini boshqa detektiv yozuvchilardan ajratib turadi. Men Konan Doyl yoki Djeymy Pattersonni o'qiganman, ularda bunday noziklik kamroq. Kristi esa o'quvchini passiv kuzatuvchi emas, balki faol ishtirokchiga aylantiradi. Lekin bu ishtirok ko'pincha noto'g'ri xulosalar keltirib chiqaradi. Va o'quvchi oxirida "qanday qilib men buni sezmadim?" deb hayron qoladi

### **Xulosa**

Agata Kristi dialoglari yuzaki oddiy ko'rinsa-da, murakkab pragmatik tuzilishga ega. Muallif lisoniy vositalar va konversatsion strategiyalar orqali o'quvchi ongida kerakli presuppozitsiyalarni shakllantiradi. Natijada o'quvchi detektiv voqeaning faol ishtirokchisiga aylanadi. Kristi dialoglari presuppozitsiyalarning boy manbai bo'lib, ularni tahlil qilish tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Flood, Alison. How Agatha Christie hides her plot secrets in plain sight. The Guardian, 2018.

2. Douthwaite, John. Agatha Christie and the social function of detective fiction. Publifarum, 2022.
3. Al-Sa'adoon, H.M., & Al-Zubaidy, B.A.G. Conversational Analysis of Adjacency Pairs in The Murder of Roger Ackroyd. Al-Adab Journal, 2024.
4. The solution to Agatha Christie's Problem at Sea. Literature Stack Exchange, 2025.
5. Hidden messages. Agatha Christie Community Forum Archive, 2015.
6. Birns, Nicholas & Birns, Margaret Boe. Agatha Christie: Modern and Modernist. Western Illinois University, 1990.
7. Du, Yuming. The Narrative Charm of The Murder of Roger Ackroyd. MA Thesis, Central China Normal University, 2019.

